

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARARNING TA'LIM-TARBIYASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Chorshanbiyeva Marjona*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*[chorshanbiyevamarjona78@gmail.com](mailto:chorshanbiyevamarjona78@gmail.com)*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ularda kuzatiladigan muammo va yechimlar to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta'lif tizimida qilinayotgan o'zgarishlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** inson, kompetensiya, ta'lif, ilm-fan, maktabgacha ta'lif

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lif tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lif sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lif sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lif tizimni yaratish ko'zda tutildi.

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash jamiyat oldidagi eng dolzarb masala sifatida qaralib, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Ota-bobolarimiz azaldan bola tarbiyasi kamolotiga alohida e'tibor qaratganlar.

Inson shaxsini ma'naviy kamolga yetkazish yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshirilishi mumkinligini ta'kidlaganlar. Buning uchun esa shaxs ta'lif-tarbiyasi va rivojlanishiga jiddiy e'tibor qaratmoq lozimligini aytadilar.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lif tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lif xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralar kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lifning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lif tizimida "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan "Davlat talablari" va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lif muassasasi Davlat o'quv dasturining hamda "Ilm yo'li" variativ dasturining ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilgani maktabgacha ta'lif sohasidagi

ta'lism-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. "Ilm yo'li" variativ dastur mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni "Boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlik guruh"lari mavjud bo'lgan maktabgacha ta'limga tashkilotlarining pedagog-xodimlari uchun mo'ljallangan.

Bola kompetensiyasi - bolaning bilim, ko'nikma, malakalar va qadriyatlar majmuidir. Tayanch kompetensiyalar rivojlanish sohalaridan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kompetentli bola o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo'llashi, o'z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'limga muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Maktabgacha ta'limga tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek,

"Maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda tarbiya bu - inson ziynati, shaxsni kamolotga eltuvchi yo'ldir. Tarbiya uzoq davom etadigan va uzlusiz jarayon bo'lib, kishining umri oxirigacha davom etadi. Tarbiya bu bolaga ijtimoiy muhit orqali qilinadigan ta'sirlarning barchasidir.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi va "Ilm yo'li" variativ dasturlarida barcha narsaning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazida - bola va uning manfaatlari turadi. Pedagog ota-on, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil etishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>

2. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>
3. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>
4. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 b
5. I.V.Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2018 y - 72 b